



## O'ZBEKISTONDA MUSIQA SAVODXONLIGI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA FINLYANDIYA TAJRIBASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

**Muallif:** Malika Xudaybergenova<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 1 – bosqich doktoranti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14407476>

### ANNOTATSIYA

Jahonda texnologiyalarning jadal rivojlanishi fan va ta'lim tizimida ham tezkorlikni talab qilmoqda. Xususan, musiqiy ta'lim jarayonlarida ham zamonaviy innovatsion metodlar va musiqa o'qitishning yangicha tendensiyalari ko'paymoqda. Ushbu maqolada musiqa ta'lim tizimini isloh qilishda Finlyandiya va O'zbekiston ta'lim tizimining pedagogik shart-sharoitlari ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** musiqa savodxonligi, xorijiy ta'lim tizimi, Finlyandiya musiqiy ta'limi, pedagogik shart-sharoitlar.

Rivojlangan davlatlarda so'nggi yillarda san'at fanini o'qitish uchun sarflanadigan xarajatlarning qisqartirilishi, ba'zi davlatlar maktab dasturidan musiqa darslarini umuman chiqarib tashlash holatlari ham kuzatilmoqda. Musiqa fanlari o'rniga haftasiga tabiiy va aniq fanlar soatlarini ko'paytirish, san'at fanlariga “ikkinchi darajali” fan sifatida qarash kuchaymoqda.

Biroq olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar musiqa o'qitishning ta'lim muvaffaqiyatlari bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda. Masalan, kam ta'minlangan oilalarning yuzlab bolalari ishtirok etgan 2014 yilgi tajribada musiqiy savodxonlik til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi ma'lum bo'ldi [1]. AQSH Shimoliy-G'arbiy universitetining neyrobiologi Nina Kraus Amerika psixologlarining 122- konferensiyasida ushbu bog'liqlik haqida bayon qilgan: “Tadqiqotlar kambag'allik sharoitida o'sgan bolalarning miyasida bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatiga ta'sir etuvchi o'zgarishlar yuz berishini aniqladi... Garchi ota-onalari kambag'al o'quvchilarga nisbatan ta'minoti yaxshi oilalar bolalari yuqori natijalarni ko'rsatgan bo'lishsa-da, musiqaga o'qitish asab tizimiga o'ta ijobiy ta'sir ko'rsatib, o'qish qobiliyatini oshirishga va mavjud farqlarni yengib o'tishga yordam beradi” [2].

Dunyoda umumiy o'rta ta'lim tizimida musiqa o'qitish, musiqa darslarini dolzarbligi va uni takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, tajribalar aniq fanlarni o'zlashtirishda musiqaning o'rni juda yuqoriligini tasdiqlamoqda. Ayniqsa matematikani musiqa bilan bog'liq holda o'rganish o'qishdagi natijalarni yaxshilashga yordam berishi kuzatilmoqda. Musiqachi, matematik va “Matematik musiqiy tafakkur” (Math Musical Minds) kompaniyasi asoschisi doktor Anna-Mariya Oreskovichning fikriga ko'ra, “matematika darslarida biz musiqadan foydalanishimiz evaziga o'qishdagi

natijalarni yaxshilashimiz, musiqani matematik elementlarga bo'lib chiqish, matematikani esa musiqa shaklida tasavvur qilish mumkin", deb hisoblaydi [3].

Mamlakatimizda ta'lim sifatini yanada yaxshilash va rivojlantirish davlat siyosati darajasidadir. Ayniqsa, san'at va madaniyat sohasi va musiqa ta'limini izchil takomillashtirish, sohada yetarlicha kadrlarni tayyorlash, xorij tajribalarini o'rganish va dars jarayonida tatbiq etish, pedagoglarning malakalarini oshirish yuzasidan ko'plab qarorlar qabul qilinmoqda. Ta'lim tizimini yaxshi tashkil etilgan davlatlar qatorida Finlyandiya ta'lim tizimi alohida ajralib turadi. Bunga 2001 yil 15 yoshli fin o'quvchilarining o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha "Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi" (PISA) da eng yuqori ball olgani, PISA test natijalaridan so'ng Finlyandiya ta'lim tizimi eng yaxshisi deb e'tirof etilgani, har yili dunyoning turli qit'alaridan pedagoglar ushbu ta'lim tizimini o'rganish va tajribalarni o'z faoliyatida tatbiq etishga intilishi ushbu tizim haqidagi qiziqishlarimizni yanada orttiradi.

Xalqaro musiqa ta'limi jamiyati (ISME) anjumanlarida, Finlyandiya tizimi hayrat va tahsin bilan e'tirof etiladi. Fin bolalar va o'smirlar xorlari butun dunyoda mashhur bo'lib, yangi xalqaro iste'dodlar - dirijyorlar, xonandalar va cholg'u ijrochilari tez-tez e'tibor markaziga chiqib turadi. Biroq, bu manzara to'liqmi? Faqat xalqaro obro'ga ega kichik elita mavjudmi yoki buning ortida ko'proq narsa bormi; butun Finlyandiya musiqa ta'limi tizimi namunali hisoblanadimi? Ko'plab yuqori darajadagi yutuqlarning aniq sabablari bor, ammo tanganing ikkinchi tomoni ham mavjud. Finlar tabiatan sokin va kamgap bo'lsalar-da, qo'shiq aytish, rol o'ynash, rasm chizish yoki boshqa hunarmandchilik mahsulotlarini yaratish orqali o'zlarini va his-tuyg'ularini ifodalashga ehtiyoj sezadilar. Ko'pgina qadimgi Markaziy Yevropa madaniyatlaridan farqli o'laroq, fin madaniyati o'zining qadimiy madaniyati bilan hali ham uzluksiz aloqada bo'lib, unda inson ishtirok etuvchi omil, "subyekt" bo'lgan. Ijodkorlik va yangilanishning doimiy holatida bo'lgan xalq musiqasining uzluksiz ommalashuvi bu aloqaning ajoyib namunasi. Hozirgi vaqtda Finlyandiya musiqa maktablarining ajoyib milliy tarmog'i mavjud. Barcha munitsipalitetlarda kattalar ta'limi markazlari mavjud va ko'plab maktablarda musiqa darslari mavjud yoki musiqa klublari mavjud. Yoz mavsumida bolalar uchun ham, kattalar uchun ham musiqa oromgohlari va kurslari tashkil etiladi.[4]


Milliy ta'lim kengashi tomonidan 2004-yilda nashr etilgan Milliy asosiy o'quv dasturida 1-6 sinflarga musiqa o'rgatadigan sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar juda yuqori. O'qitish ko'nikmalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ko'p ovozli ijroni o'z ichiga olgan vokal mashqlari
2. Ritm, melodiya va akkord cholg'ularida musiqa asarlarini ijro etish
3. Musiqa elementlari haqidagi asosiy tushunchalarni yetkazish: ritm, melodiya, garmoniya, dinamika, tembr va shakl - bularning barchasi musiqa chalish va kuylash jarayonida o'rgatiladi
4. Finlyandiya va chet el musiqasining vokal va cholg'u ijrosi repertuari, shuningdek musiqaning turli yo'nalishlari va janrlari.

Finlyandiya umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi uchun eng katta imkoniyat boshlang'ich maktabda, ya'ni dastlabki olti sinfda mavjud, chunki bu davrdan keyin musiqa darslari miqdori kamayadi. Shubhasiz, keng qamrovli pedagogik va musiqiy ko'nikmalarsiz asosiy o'quv dasturida belgilangan mazmuni o'qitish imkonsizdir.

Musiqani to'g'ri o'qitishni xohlaydigan har qanday finlyandiyalik sinf o'qituvchisi ham mohir pedagog, ham musiqachi bo'lishi shart. [5]

Umumta'lim maktabini tugatgandan so'ng, o'quvchilar musiqaga ixtisoslashgan yuqori sinflarga o'tishlari mumkin. Finlyandiya bunday maktablarning soni 12 ta bo'lib, ularning biri shved tilida ta'lim beradi va jami 2100 o'quvchiga ega. Ba'zi musiqaga ixtisoslashgan yuqori sinflar tasviriy san'at kabi boshqa yo'nalishlarni ham taklif etishi mumkin. Shuningdek, "oddiy" yuqori sinflarda ham musiqaga alohida e'tibor qaratilishi mumkin. Milliy o'quv dasturi musiqaga beshtagacha kurs ajratishga ruxsat beradi, alohida hollarda esa undan ham ko'proq kurslar o'tilishi mumkin [6].



O'zbekistonda musiqa ta'limi an'anaviy musiqa va G'arb klassik musiqasining boy integratsiyalashuvi bilan ajralib turadi, bu integratsiyalashuv ayni damda mamlakatning turli madaniy merosni ham qamrab olishini aks ettiradi. O'zbekiston uzoq va jonli musiqiy an'anaga ega bo'lib, uning ildizi Buyuk Ipak yo'lining klassik musiqasi va maqom an'anasi, Markaziy Osiyo klassik musiqa janrlarining birlashuvi bilan bog'liq. Sovet tizimi davrida G'arb klassik musiqasi, madaniyati, janrlari, cholg'u asboblarning kirib kelishi ham mahalliy, ham G'arb musiqa an'analarning chambarchas bog'lanishi va bu jarayonni ta'lim tizimiga joriy qilinishini yuzaga keltirdi.

O'zbekistonda musiqa ta'limiga e'tibor ko'pincha erta bolalikdan boshlanadi. Qo'shiq kuylash, ritm mashqlari, musiqa tinglash, musiqa ohangiga mos ritmik


harakatlarni bajarish kabi faoliyatlar bolalarga maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflardan musiqa darsi majburiy fan hisoblanib, unda bolalar asosiy musiqa savodxonligi, musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, ritmik harakatlar bajarish va bolalar cholg'u asboblari bilan jo'r bo'lish kabi 5 ta faoliyat orqali darslar olib boriladi [7].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarda an'anaviy o'zbek musiqasiga ham, G'arb klassik musiqasiga ham e'tibor qaratiladi. Professional ta'lim bosqichida o'quvchilar musiqa litseyi, pedagogika institutlari, konservatoriyalarda o'qishlari mumkin, u yerda ular ijrochilik, kompozitsiya va musiqa nazariyasi bo'yicha ta'lim oladilar. Musiqa maktablari, pedagogika institutlari, madaniyat va san'at institutlari va O'zbekiston davlat konservatoriyasi o'quv dasturlariga o'zbek an'anaviy musiqasida ham, G'arb klassik musiqasida ham o'quv mashg'ulotlar kiritilgan. O'quvchilar o'zbek milliy cholg'u asboblari bilan birgalikda, G'arb cholg'u asboblari professional tarzda ijro etishni o'rganadilar.

O'zbekistonning musiqa va san'at sohasi mamlakat madaniy bayramlari, milliy bayramlari va jamoat tadbirlari bilan yaqindan bog'langan. O'quvchilar, talabalar, an'anaviy musiqani yorituvchi ko'rsatuv va konkurslarda tez-tez ishtirok etadilar. Musiqa ta'limini ommalashtirish va talabalarga ijro imkoniyatlarini yaratib berishda O'zbekiston Davlat filarmoniyasi va turli madaniyat markazlari kabi muassasalar alohida o'rin tutadi.

## XULOSA

Hozirda ilmiy ishimiz yuzasidan ko'plab maqola va ilmiy ishlar bilan tanishish jarayonida fin ta'lim tizimi, bugungi kundagi erishgan yutuqlari, darslardan o'qituvchi va o'quvchining birdek bahra olishi, yaxshi kayfiyat, erkinlik, daxldorlik, tanqidiy fikrlash kabi xususiyatlar darslar samaradorligini oshirishi, erkin muhit yaratish va darslarni nisbatan hayotiy tajribalar bilan bog'liq ravishda olib borish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkinligini xulosa qildik.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Longitudinal Effects of Group Music Instruction on Literacy Skills in Low-Income Children November 2014 PLOS ONE 9(11):e113383 DOI: 10.1371/journal.pone.0113383

American Psychological Association Speaking of Psychology: How our brain makes sense of a noisy world, with Nina Kraus, PhD Episode 218 December 2022

Timoti Uoker Finlandiya ta'lim mo'jizasi: Hamma gap tanaffusdami? Maroqli dars o'tishning 33 siri. – Toshkent: Global books 2023.272 bet

Mikko Anttila. Challenges for music studies in class teacher education in finland., University of Joensuu, Finland., Kurybos erdvés. Nr. 7, 2007

Mikko Anttila. Challenges for music studies in class teacher education in finland., University of Joensuu, Finland., Kurybos erdvés. Nr. 7, 2007

